

ISSN: 2181-4031

# ФУНДАМЕНТАЛ


ТАДҚИҚОТЛАР ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ

1-СОН

ЯНВАРЬ, 2023



IMFAKTOR  
PAGES



ISSN: 2181-4031  
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
НОМЕР-1

ФУНДАМЕНТАЛ  
ТАДҚИҚОТЛАР  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ  
1-СОН

FUNDAMENTAL STUDIES  
SCIENTIFIC-PRACTICAL JOURNAL  
VOLUME-1



ТОШКЕНТ - 2023

## ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР

илмий-амалий журнали

№ 1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-1>

### Бош муҳаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

### Масъул муҳаррир:

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

### Таҳририят аъзолари:

Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор

Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор

Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент

Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор

Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент

Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори

Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Идиоров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор

Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор

Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор

Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.



**SOATOV Farhod Komiljon o'g'li**  
*TMI Magistratura bo'limi*  
*BH-3 talabasi*

*Ilmiy rahbar: TMI Buxgalteriya hisobi*  
*kafedrasi o'qituvchisi PhD, S.A. Djumanov*

## **MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTI 9 (MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR)NI AMALIYOTGA JORIY ETISH VA UNING MOLIYAVIY NATIJAGA TA'SIRI**

**Иқтибос келтириш учун** (for citation, для цитирования):  
**SOATOV F.K.** Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 (moliyaviy instrumentlar)ni amaliyotga joriy etish va uning moliyaviy natijaga ta'siri // **Фундаментал тадқиқотлар.** № 1 (2023) Б. 141-150.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7585568>

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada ayni vaqtda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritib kelayotgan korxonalar va tashkilotlar hamda tijorat banklari buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritishda amaliyotga joriy etishdagi duch kelinayotgan muammolar, shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 (keyingi o'rinlarda MHXS 9) (Moliyaviy instrumentlar)ni amalda qo'llagan holda tuzilayotgan hisobotlardagi ko'rsatkichlar ya'ni O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritib kelayotgan tijorat banklari misolida moliyaviy natijalariga qanchalik ta'sir etishi yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Moliyaviy aktiv, moliyaviy majburiyat, kutilayotgan kredit yo'qotishlari, kredit yo'qotishlari uchun zaxira, integratsiya, moliyaviy instrumentlar, pul oqimlari, sof foyda, kredit portfeli, asosiy qarzar.

### **ANNOTATION**

In the article, at the same time, the problems encountered in the implementation of the international standards of financial reporting in the accounting and reporting of enterprises and organizations operating in the Republic of Uzbekistan and commercial banks, as well as the international standard of financial reporting 9 (hereinafter referred to as IFRS 9) (Financial Instruments) in practice, the indicators in the reports, i.e., how much it affects the financial results of the commercial banks operating in the Republic of Uzbekistan, will be explained.

**Keywords:** Financial asset, financial liability, expected credit losses, provision for loan losses, integration, financial instruments, cash flows, net profit, loan portfolio, principal amount of the loan.

“XXI asr boshlariga kelib, jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo‘lmagan yangi tendensiyalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning ma’no-mazmuni tubdan o‘zgardi. Jahon bozoridagi iqtisodiy vaziyat murakkablashdi, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tabiatida yangi o‘zgarishlar yuz berdi. Iqtisodiy raqobat nihoyatda kuchayib, tobora keskin va shafqatsiz tus olmoqda. Bunday vaziyatda mamlakatimiz iqtisodiyotining muntazam takomillashib borishini ta’minlaydigan mexanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liq vazifalarni puxta belgilab olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham shundan iborat”<sup>1</sup>.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish joizki mamlakatimiz prezidenti tomonidan olib borilayotgan siyosatda mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarish, uni yanada rivojlantirish va diversifikatsiya qilishga katta e’tibor qaratilmoqda, shularning amaliy ifodasi sifatida mamlakatimizga chet ellik investorlarni jalb qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan strategiyalar, rejalar va yo‘l xaritalari ishlab chiqilmoqda. Shuning bilan birgalikda malakatga chet ellik investorlarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar, mamlakatning investitsion jozibadorligini ko‘rsatib beruvchi richaglarga e’tibor qaratilmoqda, jumladan mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 24-fevral 2020-yildagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>2</sup>gi qaror qabul qilinishi mamlakatni jahon iqtisodiyotiga integratsiya qilishdagi ilg‘or qadam deyish mumkin. Albatta tashqi investorlarni jalb qilishda brinchi o‘rinda mamlakatning iqtisodiy resurslarga boyligi va arzon ishchi kuchi mavjudligi eng asosiy o‘ziga tortuvchi magnitlar deyishimiz mumkin. Lekin har doim ham unday emas, bilamizki dunyoda yer osti va yer usti qazilma boyliklariga boy bo‘lgan va arzon ishchi kuchiga ega bo‘lgan malakatlar talaygina biroq ularning hammasida ham investorlarni qo‘llab quvvatlaydigan qulay iqtisodiy muhit mavjud emas.

Hozirgi kunda mamlakatimiz tashqi investorlarni jalb qilish uchun bor imkoniyatlarni ishga solmoqda va bu o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonida jahon standartlarini amaliyotga joriy etishi va qo‘llashi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek yuqori daromadli va istiqbolli korxonatashkilotlar va tijorat banklarining o‘z moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzishlari va ularni jahon qimmatli qog‘ozlar bozorlarida qo‘yilgan aksiyalarga qiziqish bildirgan investorlarga taqdim etish orqali hamma uchun turshunarli iqtisodiy tilda izohlab berish tashqi investorlarni jalb etishning muhim bir jihati deyishimiz mumkin.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida shakllantirish va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘ri hamda aniq ma’lumotlar manbai asosida tuzilib ularni dunyoda o‘z mavqei va yuqori malakali, professional hodimlarga ega bo‘lgan auditorlik kompaniyalarining xulosalarini olish birmuncha qiyin jarayon deyishimiz mumkin. Buning sabablari bir nechta:

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” 2- nashr:-T:“O‘zbekiston”, 2022.-124 B.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. 24.02.2020 <https://lex.uz/docs/-4746047>

- Mamlakatda amalda bo‘lgan buxgalteriya hisobining milliy standartlarining mamlakat qonunchiligiga chambarchas bog‘lanib ketganligi;
- Xalqaro standartlarni biladigan mutaxassislarning yetarli emasligi;
- Xalqaro standartlarni o‘rganishga qiziqish bildiruvchilar uchun o‘zbek tilida xalqaro standartlarning ayni tarjimalari yoki muqobil variantlarining mavjud emasligi;
- Xalqaro standartlarga o‘tishning iqtisodiy va ijtimoiy natijalari to‘g‘risida tasavvurlarning noto‘g‘riligi yoki yetarli emasligi;
- Xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o‘tishning to‘g‘ri tashkil etilmaganligi;
- Shuningdek xalqaro standartlarga o‘tishning qonuniy shart-sharoitlari ishlab chiqilmaganligi va boshqalar.

Yuqorida aytib o‘tilganlarni birma-bir tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak, bilamizki hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan korxonalar, tashkilot va tijorat banklari barchalari o‘z hisobotlarini milliy qonunchilik doirasida tuzadilar va manfaatdor bo‘lgan davlat organlariga jumladan, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat statistika qo‘mitasi, Markaziy bank va boshqa manfaatdor shaxslarga taqdim etadilar va bu jarayon davlat manfaatlarini ko‘zlagan holda amalga oshiriladi.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish joizki aynan mamlakatimizda mavjud bo‘lgan moliyaviy hisobotlarni kimlarga taqdim etish va hisobotlarni tuzish tartibi milliy standartlarga asoslanganligi qonun bilan belgilab qo‘yilganligi dunyoning boshqa ko‘pchilik davlatlarida ham kuzatiladi. Bu yerda men shuni aytmoqchimanki, o‘sha biz aytayotgan xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etgan davlatlar ham avvalombor milliy qonunchilikdan kelib chiqib hisobot tuzishni va taqdim etishni talab qiladilar. Shuningdek davlat iqtisodiy-ijtimoiy manfaatdor bo‘lgan korxonalar-tashkilot va tijorat banklariga o‘z moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzishga ruxsat beradi va qonuniy jihatdan shart-sharoit yaratib bergan.

Bu davlatlar amaliyotidan xulosam shuki, har bir davlat o‘z iqtisodiy-ijtimoiy holatidan kelib chiqib o‘ziga mos qonunchilik bazasiga ega va har doim davlat manfaatlari ustun qo‘yiladi, shuningdek davlat boshqalarning manfaatlarini ko‘zlagan holda shart-sharoit yaratib berishi kerak ekan.

Agar yuqorida ko‘rsatilgan sabablar o‘z yechimini topadigan bo‘lsa o‘ylaymanki xalqaro standartlarga o‘tish jarayoni tezlashadi va samarali natijalarga erishiladi. Mamlakatimiz prezidenti tomonidan “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish” bo‘yicha chiqarilayotgan qonun va qarorlar, shuningdek buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonining ketayotganligi bu sohadagi ildam qadamlar deyishimiz mumkin. “2015-yil 7-dekabrda Avstriya moliya bozori boshqarmasining Integratsiyalashgan moliyaviy bozorlar bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari David Grunberger “Kutilayotgan kredit yo‘qotishlar hisobi: moliyaviy barqarorlik kaliti?” mavzusidagi maqolasida kutilayotgan zararni hisobga olish asosida yangi IFRS 9 qadrsizlanish qoidalarini joriy qilish uchun o‘zining tasviriy natijalarini taqdim etdi.

Uning fikricha, qadrsizlanishning yangi modeli nafaqat buxgalteriya hisobiga taalluqlidir, chunki u banklarning umumiy tartibga solinishi, bank kapitali va bank



xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatish orqali, nihoyat, moliyaviy barqarorlikka ham ta'sir qiladi. Grunbergerning tahlillari quyidagi xulosalarni olib keldi: MHXS 9 bilan kutilayotgan kredit yo'qotishlari uchun yuqori zaxiralar yaratiladi va qo'shimcha zaxiralarning yaratilishi esa kredit riskining salbiy o'zgarishi tufayli sodir bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Grunberger ta'kidlashicha sodir bo'lmagan kredit yo'qotishlar bo'yicha kutilmalar kompaniya moliyaviy natijasiga daromadlilik nuqtai nazaridan biroz yuqori o'zgaruvchanlikni keltirib chiqaradi. Ya'ni kompaniya o'tgan yil kutilayotgan kredit yo'qotishlari uchun katta miqdorda zaxira yaratgan bo'lsa albatta bu kompaniya daromadini tabiiyki kamaytiradi, joriy yilda esa kompaniya portfelida kredit riski bo'yicha ijobiy o'zgarish kuzatilsa bu o'z navbatida kredit yo'qotishlari bo'yicha yaratilgan zaxiralarning qaytishiga olib keladi bu degani o'tgan yil kompaniya daromadi juda kam bo'lgan bo'lsa bu yil esa yuqori daromad bilan chiqishi kompaniya moliyaviy natijalaridagi keskin o'zgarishining yaqqol dalili deyish mumkin.

Grunberger buxgalteriya hisobining oldingi yondashuvlari tanqidchilarining fikriga qo'shilib, buxgalteriya qoidalari avvalgidan ko'ra ko'proq bo'lishi kerak. Bu yerda prognozlarning sifati muhim bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, investorlar bilan aloqalar davrida, uzoq muddatli kredit yo'qotishlari uchun yaratilgan yuqori miqdordagi zaxiralar moliyalashtirish holatining garovi deyish mumkin"<sup>3</sup>.

"9-sonli "Moliyaviy instrumentlar" MHXSga muvofiq, kutilayotgan kredit yo'qotishlari (ECL-Expected Credit Loss) hisobot sanasida ortiqcha xarajat va kuch sarflamasdan mavjud bo'lgan foydali va asosli ma'lumotlarga asoslanadi. Bu qarz oluvchining o'ziga xos xususiyatlari, o'tgan davrlardagi iqtisodiy-ijtimoiy holati, joriy sharoitlari va kelajakdagi iqtisodiy sharoitlarning prognozlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi"<sup>4</sup>.

Endi esa moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzuvchi tijorat banklari misolida aynan tijorat banklari faoliyatining katta qismini egallaydigan va tijorat banklari buxgalteriya hisobi amaliyotida mavjud Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standarti 9 (Moliyaviy instrumentlar) standartini amalda qo'llashning moliyaviy natijalarga ta'sirini tahlil qilamiz (1-jadval).

Ushbu jadvalda O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda faoliyat yuritib kelayotgan tijorat banklarining 2020 va 2021 – yillar MHXSlar asosida tuzgan moliyaviy hisobotlaridan olingan ko'rsatkichlar keltirilgan. Jadvalda tijorat banklarining 2020 va 2021 – yil yakunlari bo'yicha ishlab topilgan sof foydasi va banklar faoliyatining asosiy qismini egallovchi mijozlar uchun berilgan kredit va boshqa moliyaviy instrumentlarning MHXS 9 asosida hisobi yuritilishi asnosida vujudga kelgan kelgusida kutilayotgan kredit qarzdorligi bo'icha yaratilgan zarar summaları keltirilgan.

<sup>3</sup> <https://safe-frankfurt.de/news-latest/all-news/news-view/on-expected-credit-loss-accounting.html>

<sup>4</sup> Ryan Jong (Associate Partner KPMG in the UK), "Kutilayotgan kredit zararlarining qanday ta'sir bor?" 28.06.2021 <https://home.kpmg/xx/en/home/insights/2021/06/climatechange-ifrs9-ecl>

1 - Jadval

**“O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijoratbanklarining 2020 va 2021-yillar yakunlari bo‘yicha moliyaviy natija ko‘rsatkichlari”<sup>5</sup>**

T/r	Banklar nomi	Moliyaviy natija ko‘rsatkichlari: Yil foydasi (mln. so‘mda)		Kutilayotgan kredit yo‘qotishlari uchun yaratilgan zaxira (mln. so‘mda)	
		2020	2021	2020	2021
1	Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki	1,142,798	1,445,434	1,267,568	1,241,528
2	Sanoat qurilish bank	112,124	856,988	1,200,998	420,937
3	Asaka bank	211,650	139,885	741,531	599,975
4	Qishloq qurilish bank	81,780	13,372	216,650	446,212
5	Agro bank	51,869	70,610	341,137	760,115
6	Ipak yo‘li bank	188,707	394,915	168,839	21,349
7	Ipoteka bank	405,649	886,781	609,720	591,328
8	Mikrokredit bank	27,338	5,095	223,031	435,954
9	Turon bank	10,015	22,030	121,727	148,465
10	Hamkor bank	383,003	500,272	99,639	50,555
11	Kapital bank	120,616	364,499	63,929	89,151
12	Orient finans bank	237,036	274,081	16,145	36,812
13	Asia alliance bank	37,566	42,215	45,492	86,100
14	Davr bank	93,133	114,780	9,652	8,000
15	KDB bank O‘zbekiston	68,951	98,016	3,150	-1,072
16	Tenge bank	7,389	52,585	11,838	81,306
17	Trastbank	300,602	433,806	63,811	33,879
18	Invest finance bank	81,138	131,229	33,380	26,537

1-2 jadvallar ma’lumotlarini tahlil qilishimizdan oldin MHXS 9 haqida ozroq tushuncha berib o‘tamiz. MHXS 9 2001 yilda ish boshlagan IASB (International Accounting Standards Board – Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi) tomonidan chiqarilgan standartlardan biri bo‘lgan 39-IAS (International Accounting Standards – Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari) o‘rnini egallagan. Jahon iqtisodiy inqirozidan oldin, Moliyaviy hisob standartlari bo‘yicha kengash (FASB- Financial Accounting Standards Board) va Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi (IASB) buxgalteriya hisobida moliyaviy instrumentlar hisobini yuritish bo‘yicha tegishli standartlarni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish bo‘yicha qo‘shma loyihani boshlagan edi.

<sup>5</sup> Jadval muallif tomonida tijorat banklari asosiy saytlarida “Aksiyadorlar va investorlar” uchun ochiq ma’lumotlar bo‘limida joylashtirilgan tashqi audit xulosalari bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida tuzildi.



2 – Jadval

**“O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining 2020 va 2021-yillar yakunlari bo‘yicha moliyaviy holat ko‘rsatkichlari”<sup>6</sup>**

T/r	Banklar nomi	Bankning MHXS hisobotiga ko‘ra umumiy kredit portfeli miqdori (mln. so‘m)		Kredit portfelining bank umumiy aktivlaridagi ulushi (%da)		Yaratilgan zaxira miqdorining umumiy kredit portfeliga nisbatan ulushi (%da)	
		2020	2021	2020	2021	2020	2021
1	Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki	63,475,675	72,089,675	81.24	81.70	2.00	1.72
2	Sanoat qurilish bank	38,959,958	42,537,051	80.62	76.32	3.08	0.99
3	Asaka bank	35,806,386	37,695,638	79.02	76.32	2.07	1.59
4	Qishloq qurilish bank	13,452,953	16,885,058	86.34	84.66	1.61	2.64
5	Agro bank	24,868,630	32,068,653	80.21	81.09	1.37	2.37
6	Ipak yo‘li bank	4,780,397	6,311,634	69.27	67.80	3.53	0.34
7	Ipoteka bank	24,345,221	29,263,226	74.67	72.86	2.50	2.02
8	Mikrokredit bank	8,143,820	10,334,249	82.44	80.72	2.74	4.22
9	Turon bank	6,819,483	8,107,596	80.81	75.89	1.78	1.83
10	Hamkor bank	7,273,860	9,497,406	70.71	76.01	1.37	0.53
11	Kapital bank	4,679,974	8,051,816	64.91	52.92	1.37	1.11
12	Orient finans bank	3,575,643	3,711,462	69.75	63.64	0.45	0.99
13	Asia alliance bank	1,852,829	1,914,059	63.98	60.25	2.46	4.50
14	Davr bank	1,301,330	2,167,012	73.53	81.95	0.74	0.37
15	KDB bank O‘zbekiston	943,732	1,172,137	15.01	14.99	0.33	0.00
16	Tenge bank	971,385	1,646,536	60.41	49.04	1.22	4.94
17	Trastbank	2,320,789	2,786,412	49.34	40.24	2.75	1.22
18	Invest finance bank	3,208,621	3,731,345	69.55	67.12	1.04	0.71

Yuqoridagi jadvallar ma’lumotlarini tahlil qilishimizdan oldin MHXS 9 haqida ozroq tushuncha berib o‘tamiz. MHXS 9 2001 yilda ish boshlagan IASB (International Accounting Standards Board – Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi) tomonidan chiqarilgan standartlardan biri bo‘lgan 39-IAS (International Accounting Standards – Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari) o‘rnini egallagan.

<sup>6</sup> Jadval muallif tomonida tijorat banklari asosiy saytlarida “Aksiyadorlar va investorlar” uchun ochiq ma’lumotlar bo‘limida joylashtirilgan tashqi audit xulosalari bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida tuzildi.

Jahon iqtisodiy inqirozidan oldin, Moliyaviy hisob standartlari bo'yicha kengash (FASB- Financial Accounting Standards Board) va Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi (IASB) buxgalteriya hisobida moliyaviy instrumentlar hisobini yuritish bo'yicha tegishli standartlarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish bo'yicha qo'shma loyihani boshlagan edi.

Jahon iqtisodiy inqirozi moliyaviy instrumentlar uchun mavjud buxgalteriya modeli o'ziga xos bo'shliqlar va nomuvofiqliklar bilan bugungi murakkab iqtisodiy muhit uchun etarli emasligi haqidagi mavjud holatni isbotlab berdi. Jahon iqtisodiy inqirozidan so'ng moliyaviy hisobotlar to'g'ri va aniq tuzish butun dunyo e'tiborining mavzusiga aylandi, bunda asosiy e'tibor bir qator sohalarda, jumladan, moliyaviy instrumentlarning buxgalteriya hisobi standartlarini takomillashtirish zaruriyatiga qaratildi. Natijada, jahon kapital bozorlarini yaxshi ishlashini qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab investorlar, hisobot tuzuvchilar va hatto yuqori darajadagi boshqaruv organlari investorlarga eng foydali, shaffoflikni ta'minlaydigan moliyaviy instrumentlar uchun yagona qoliplashgan moliyaviy hisobot shaklini ishlab chiqishni birinchi darajali ustuvor vazifa sifatida tan olishga chaqirdi. Shvetsiyalik iqtisodchi PhD Niklas Frykstrom va hozirda Sveriges Riksbankda bosh iqtisodchi bo'lib ishlab kelyotgan, asosan bank faoliyatini tartibga solish, moliyaviy siyosat va tahlillari bilan tanilgan Uppsala universitetining Biznes boshqaruvi fakulteti o'qituvchisi va tadqiqotchisi tomonidan 2018 yilda chiqarilgan "Business & Economics" jurnalidagi maqolasida yangi chiqarilgan MHXS 9 undan oldin qo'llanishda bo'lgan BHXS 39 (Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti) (IAS 39 – International Accounting Standards)da mavjud bo'lgan kamchiliklarni to'ldirganligi, shuningdek yangi standart moliyaviy instrumentlarning tasniflanishi, baholanishi, qadrsizlanishi va ularni xedjlash bo'yicha yaxshi qo'llanma ekanligini, ayniqsa kelajakda moliyaviy instrument bilan bo'lishi mumkin bo'lgan "Kutiladigan kredit yo'qotishi"ni (ECL- Expected Credit Loss) oldindan o'lchashga yordam berishini ta'kidlagan. "Mazkur MHXSning maqsadi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga tashkilotning kelgusi pul oqimlarining summasi, vaqti va noaniqligini baholash uchun o'rinli va foydali ma'lumot taqdim etadigan moliyaviy aktivlarni va moliyaviy majburiyatlarni moliyaviy hisobotda aks ettirish tamoyillarini belgilashdan iborat"<sup>7</sup>.

Biz yuqorida tahlil qilmoqchi bo'lganimiz bankning moliyaviy natijasiga kutilayotgan kredit zararlari qanchalik ta'sir etishi, uning oqibatlari va qanday hollarda vujudga kelishidir. "Kutilayotgan kredit zararlari moliyaviy instrumentning kutilayotgan amal qilish muddatida kredit zararlarining (ya'ni barcha pul mablag'lari kelib tushmasligining diskontlangan qiymati) ehtimollik asosidagi baholanishidir. Pul mablag'larining kelib tushmasligi bu shartnoma bo'yicha tashkilotga kelib tushishi lozim bo'lgan va tashkilot kelib tushishini kutayotgan pul oqimlari o'rtasidagi farq hisoblanadi.

---

<sup>7</sup> Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 Moliyaviy instrumentlar (IFRS 9 – International Financial Reporting Standard). IFRS Foundation 2022 <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-9-financial-instruments/#standard>

Kutilayotgan kredit zararlari to'lovlarning vaqti va summasini hisobga olganligi sababli, kredit zararlari tashkilot to'liq to'lanishini kutayotgan lekin shartnoma muddatidan kechikkan holda amalga oshiriladigan holda ham yuzaga keladi"<sup>8</sup>. Shuningdek kutilayotgan kredit zararlarining vujudga kelishida va ortishida moliyaviy aktivlarning qadsizlanishi tufayli vujudga keladi. Agar bir yoki bir nechta hodisalar moliyaviy aktivning kelgusi pul oqimlariga salbiy ta'sir ko'rsatsa, moliyaviy aktiv kredit qiymati qadsizlangan hisoblanadi. Moliyaviy aktivni kredit qiymati qadsizlanganini ko'rsatadigan dalillar quyidagi hodisalar bo'yicha kuzatiladigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- a) emitent yoki qarzdorning moliyaviy ahvoli ahamiyatli yomonlashuvi;
- b) shartnomaning buzilishi, masalan, defolt yoki to'lov muddatining kechikishi;
- c) kreditor tomonidan qarzdorlarga iqtisodiy yoki shartnoma asoslarida qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashuvi sababli, boshqa holatda berilmaydigan yengilliklar berishi;
- d) qarzdor bankrot bo'lishi yoki boshqacha moliyaviy qayta tashkil etilishi ehtimolini yuzaga kelishi;
- e) ushbu moliyaviy aktiv uchun moliyaviy qiyinchiliklar sababli faol bozorning yo'qolishi; yoki
- f) ko'rilgan kredit zararlarini aks ettiruvchi moliyaviy aktivni katta chegirmada sotib olish yoki yaratish.

Ayrim holatlarda yagona aniq hodisani aniqlash imkoni bo'lmaydi, balki moliyaviy aktivning kredit qadsizlanishi bu bir nechta hodisalarni birlashgan natijasi bo'ladi. Berilgan ta'riflardan shuni xulosa qilish mumkinki, MHXS 9ning asosiy mohiyati va o'zidan oldingi 32-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (Moliyaviy instrumentlar: Taqdim etish) o'rniga chiqishi bu standartdan ajratib turadigan farqli jihati unda kompaniyaning moliyaviy instrumentlaridan kelajakda kutishi mumkin bo'lgan zararlarni hisobga olishi kerak ekanligini nazarda tutishidir.

Shunday qilib, yuqoridagi jadvallarda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining 2020 va 2021-yillardagi moliyaviy hisobotlaridan olingan ma'lumotlar tahlil qilingan, unda asosan bankning yil yakuni bilan erishgan foydasi va o'sha yil yakuni bilan kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan kredit yo'qotishlari bo'yicha yaratilgan zaxiralar summasi keltirilgan.

Misol uchun Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki 2020 va 2021-yillar yakuni bilan 1,142,798 va 1,445,434 million so'm sof foyda bilan chiqqan bo'lsa, shuningdek, bankning moliyaviy hisobotiga ko'ra 2020 va 2021-yillarda bankning umumiy aktivlarining 81.24 va 81.70 foizini ya'ni 63,475,675 va 72,089,675 million so'mni tashkil qiluvchi kredit portfeliga nisbatan kelajakdagi kredit yo'qotishlarga nisbatan yaratilgan zaxira summaları 1,267,568 va 1,241,528 million so'mlar ham sof foydaning ishlab topilishiga juda katta ta'sir ko'rsatgan, tasavvur qiling agar shu 2020 va 2021-yillar uchun yaratilgan zaxiralar hisobga olinmaganda yoki yaratilmaganda

---

<sup>8</sup> Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 Moliyaviy instrumentlar (IFRS 9 – International Financial Reporting Standart). IFRS Foundation 2022 <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-9-financial-instruments/#standard>

bankning foyda solig'ini chegirgandan keyingi sof foydasi deyarli 2 trillion so'mdan oshar edi.

Bundan kelib chiqadiki yaratilgan zaxira sof foydaga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etar ekan, buning yaqqol ko'rinishini Sanoat Qurilish Bank (keyingi o'rinlarda SQB) moliyaviy natijalarida ko'rish mumkin. SQB 2020 va 2021-yillar yakunlari bo'yicha 112,124 va 856,988 million so'm sof foydaga erishgan bo'lsa, shu yillar uchun yaratilgan zaxira esa 1,200,998 va 420,937 million so'mni tashkil qilmoqda, bu summalar bank umumiy aktivlarining 80.62 va 76.32 foizini tashkil qiladigan kredit portfeliga nisbatan 2020 va 2021-yillarda 3.08 va 0.99 foizni tashkil etmoqda. Bundan ko'rinadiki SQB 2020-yilni kamroq sof foyda bilan lekin yaratilgan katta zaxira miqdori bilan yakunlagan. 2021-yilda esa sof foyda ko'rsatkichida salmoqli o'sish kuzatilgan, bundan ko'rinadiki 2020-yilda yaratilgan zaxira 2021-yilda kredit portfelidagi ijobiy o'zgarish tufayli qaytgani va sof foyda ko'rsatkichiga yaxshi ta'sir etganini ko'rishimiz mumkin. Kredit portfelidagi ijobiy o'zgarish deganda biz yuqoridagi ta'riflarga asosan kredit asosiy qarzi va uning foizini shartnomada ko'rsatilgan vaqt va miqdorlarda qaytishi bilan izohlashimiz mumkin.

Shunday qilib xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, biz yuqorida ko'rib o'tgan moliyaviy natija ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar shu jumladan sof foydaga yaratilayotgan zaxira miqdorining salbiy ta'siri bir qarashda moliyaviy hisobot manfaatdor foydalanuvchilarida salbiy yoki noto'g'ri taasurol uyg'otishi turgan gap, lekin shuni unutmasligimiz kerakki yaratilayotgan zaxira ko'rib turganimizdek keyingi yili qaytmoqda, bu degani qaysidir yil ko'proq zaxira yaratilsa, qaysidir yil kamroq bo'lishi mumkin albatta bu kredit portfelining mavjud holatiga bog'liq bo'ladi va albatta keyingi yillarda portfeldagi ijobiy o'zgarishlar tufayli zaxiralarnining qaytishi va sof foyda ko'rsatkichini yaxshilash bilan izohlanadi.

Yaratiladigan zaxirani biz birinchi navbatda kompaniya aktivlarining hisobot sanasidagi sof qiymatini ko'rsatish bilan izohlasak, ikkinchidan yaratiladigan zaxira kompaniya uchun "xavfsizlik yostiqchasi" vazifasi bo'lib xizmat qiladi deyishimiz mumkin, bu degani kompaniya qaysidir moliya yilini salbiy natija bilan yakunlagan taqdirda kichik inqirozlarni yengillashtirishga va osongina yengib o'tishga yordam beradi va kompaniyani birdaniga bankrotlik yoqasiga kelib qolishdan qaytaradi.

## IQTIBOSLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 4611-sonli qarori.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”:- T:“O‘zbekiston”.2022-y.418-b.

3. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019 y. - 584 b.

4. Norbekov D.E., To‘raev A.N., Raxmonov Sh.Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Iqtisod-moliya, 2019 y. -329 b.

5. Ergasheva Sh.T., Uchebnik «Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti» –T.: TGEU, 2020 g.- 307 str.

6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 Moliyaviy instrumentlar (IFRS 9 – International Financial Reporting Standart). IFRS Foundation 2022

7. The manual of Accounting – IFRS 2019. The Global Accounting Consalting Services team of PricewaterhouseCoopers LLP 2019.

8. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)

9. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

10. [www.ifrs.org](http://www.ifrs.org)

11. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

12. [www.mhxs.edu.uz](http://www.mhxs.edu.uz)

13. [www.investopedia.com](http://www.investopedia.com)

14. Tijorat banklari saytlari.